

K. SMAMUTOVNING SATIRIK HIKOYALARIDA KONFLIKT VA XARAKTER

*Jaqsilikova Albina Saginbaevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti
Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida assistent o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada qoraqalpoq yozuvchisi K.Smamutovning hikoyalarida xarakter va konflikt yaratilish uslubi haqida ilmiy fikrlar keltirilgan. K.Smamutovning «Kelinimning pak muhabati», «Baylar da jilaydi», «Deydi, deydi, deydi eken», «Jasi ulkenni siri», «Solaqay», «Anqaw balaning akisi», «Tuyeni kopirden otivi» singari hikoyalarida xarakter va konflikt yaratishda yozuvchining mahorati tahlil qilingan. Yozuvchi asarlarida qahramon xarakteri yasalishining o'ziga xosligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: proza, roman, xarakter, satira, satirik xarakter, yozuvchi uslubi

КОНФЛИКТ И ХАРАКТЕР В САТИРИЧЕСКИХ ПОВЕДИЯХ К. СМАМУТОВА

*Джаксилкова Альбина Сагинбаевна,
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза
Ассистент кафедры каракалпакской литературы*

Аннотация: В статье представлены научные мнения о способе создания персонажей и конфликтов в рассказах каракалпакского писателя К.Смамутовнына. К.Смамутовнына «Чистая любовь моей невесты», «Богатые тоже плачут», «Он говорит, говорит, говорит», «Старикова корова», «Чапакай», «Отец застенчивого мальчика», «Верблюд, переходящий мост», в его рассказах анализируются умения писателя в создании характера и конфликта. В произведениях писателя исследуется своеобразие формирования характера героя.

Ключевые слова: проза, роман, персонаж, сатира, сатирический персонаж, писательский стиль.

CONFLICT AND CHARACTER IN THE SATIRICAL STORIES OF K. SMAMUTOV

*Jaksilikova Albina Saginbaevna,
Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz, Assistant teacher of
Karakalpak literature department*

Abstract: The article presents scientific opinions about the method of character and conflict creation in the stories of the Karakalpak writer K.Smamutovni. «Kelinimning pak muhabati», «Baylar da jilaydi», «Deydi, deydi, deydi eken», «Jasi ulkenni siri», «Solaqay», «Anqaw balaning akisi», «Tuyeni kopirden otivi», the writer's skills in creating character and conflict are analyzed in his stories. In the works of the writer, the uniqueness of the creation of the character of the hero is studied.

Key words: prose, novel, character, satire, satirical character, writer's style

Qoraqalpoq adabiyotida turmush haqiqatligini badiiy ifoda etishda, asarlarida konflikt va xarakterning ochilishida reallikga asoslanadigan yozuvchilarning biri K. Smamutov bo'ldi.

Yozuvchi K.Smamutov hikoyalari g'oyaviy-mavzuviy jihatidan rang-barangligi bilan ajralib turadi. So'z ustasining jamiyatimizdagi insonlarning qilmishli harakatlarini o'tkir tanqidga olib yozgan asarlari juda ko'p. Atab aytganda, «Kelinimning sof

muhabbati», «Boylar ham yig'laydi», «Deydi, deydi, deydi ekan», «Yoshi kattaning sigiri», «Chapaqay», «Anqov bolaning otasi», «Tuyaning ko'prikdan o'tishi» singari hikoyalari hajviy elementlar bilan sug'orilgan asarlar hisoblanadi.

Yozuvchi asarlarida qahramon xarakteri yasalishining o'ziga xosligi o'zgacha ko'zga tashlanadi. Muallifning «Chapaqay» [1] hikoyasida tuturiqsizlik, soxta olim ko'rinishidagi odamning xarakteri muallifning hikoya qilish usuli bilan mohirona ochib berilgan. Hikoyada siyosatga, davrning talabiga xos o'z o'ylarini va qarashlarini o'zgartirib, ilmni aldashga harakat qiluvchi doimo chapaqay fikirlaydigan inson xarakteri beriladi. Mustafa Axmedov eski tuzim vaqtida yetuk olim sifatida bir qator yangiliklar ochib, o'z dinini oyoq-osti qilib, «Quroni-Karim»ni, payg'ambarlarni, xalqimizning mashhur shoirlarini ateist deb baholab, o'sha davrning yuqori qatlam vakillariga hushomadgo'ylik qilib, o'zining asosiy dunyoqarashidan butunlay uzoqlashgan inson. Lekin zamonlar o'zgarishi bilan, jamiyatda yangidan g'oyalarning paydo bo'lishi sababli Mustafa Axmedovning fikrlash dunyosi almashib ketadi. Ya'niy o'zi topgan yangiliklarga, o'zi qarshi chiqib oldingi yot g'oyalarni ilimning yangi yangiligi sifatida baholay boshlaydi.

Hikoya boshlanishida mashhur bir olimning ilim yo'lidagi xizmatlari yuqori darajaga ko'tarilib maqtalyotgandek ko'rinadi. Masalan, «Qancha aytgan bilan ham ilimning odamiku. Oshiqmaydi, hayojonlanmaydi. Barcha harakatlarida kavsh qaytarib turgan sigirning beg'amligidek beg'amlik bor. Bir narsani aytmasdan oldin suvlig'i bilan suv ichgan ayg'ir otdek tamshanib turib olar ekan. Bu narsa ilm desa ichgan oshini yerga qo'yadigan iste'dod egalarini borgan sari intiqtirsak kerak.» [1:87]

Hikoya voqealari rivojlanib borishi bilan Mustafa Axmetovning qiyofasi ochoilib bora boshlaydi. Qay tarafi bilan chapaqay atalgan bu insonning ishlagan harakatlari, so'z etilgan voqealar asosida bayon qilina boshlaydi. Bayon qiluvchi qahramonga bo'lgan jirkanish tuyg'usini, olimning fikrlash dunyosining beso'naqayligini ironiyali ta'svirlash usuli bilan o'tkir tanqidga oladi. Kelajak avlodga tarbiya bo'ladigan shunday olimsifat odamlarning jamiyatimizda o'z o'rniga mahkam joylashib olganligi achchiq hajviya o'tiga o'rtaydi. Hikoya so'nggida muallifning bayon qilishi bilan chapaqay insonning qo'rqinchli basharasini anglaganday bo'lamiz. Masalan:

«Bayberdiga bergan va'damda turdim. Mustafa Axmedovning oldiga bormadim. Faqat bir safari va'damni ilojisiz buzishga to'g'ri keldi. Menga tanish odamlar bilan ollohning rahmati haqida gaplashib turgan ekan. Salomlashishga majbur bo'ldim. Lekin salomlashgandan keyin qo'llarimni sovunlab yuvib tashladim. Qanday bo'lganda ham, musulmonning avlodimiz-ku, toza yurganimiz maqul emasmi?!» [1:90] Mustafa Axmedovning o'y-hayolining shu darajada iflos ekanligi, bayon qiluvchining qo'lini yuvib tashlagani, ya'niy sovun detalidanoq aniq payqaladi.

Yozuvchining «Deydi, deydi, deydi ekan» hikoyasida o'z so'ziga turmaydigan, katta boshliqlarga hushomadgo'ylik qilib kun kechiradigan, o'z foydasi yo'lida erkaklik g'ururidan ayrilgan jamiyatimizdagi ayrim shaxslarning obrazi ochib beriladi. Asar voqealari dialoglar, esga tushurishlar va mualliflik bayon qilishlar bilan ta'svirlanadi.

Hikoyada hajviy xarakterga ega qahramonlar Elmurod, Berdimurod, Xolmurodlar o'z vaqtida yuqori lavozimlarda ishlab, faxrli dam olishda yurgan insonlar. Bular ko'pincha to'y-marakalarda bosh qo'shganda, bir-birining gapini qo'llab, haqiqatni yolg'onga, yolg'anni haqiqatga aylantirib gapirishga usta. Ularni tashqaridan kuzatuvchilar, bilimli, aqilli, aytar so'zini biladigan insonlar sifatida ko'radi. Lekin ular biri-biridan oshib tushadigan hushomadgo'y, ayyor, o'zini g'amini o'ylaydigan yaramas insonlar. Ularning suhbatlari ko'pincha yuqori lavozimli shaxslarni maqtash, pora berish, yaxshi ishda ishlash kabi masalalar bo'ladi. O'sha o'tirishda ham shahar hokimining yoshi kichik bo'lsa ham, sirtidan oqsoqol deb aytib, ko'klarga ko'tarib gapirishni yaxshi ko'radi.

Ularning xarakteridagi hushomadgo'ylik quyidagi dialoglarda aniq ko'zga tashlanadi:

- Maqtamasang boshliq bo'ladimi?! -dedi Berdimurod og'a.
- Ana shu o'ringa bizni maqtasin deb qo'yibdi -ku, - dedi Xolmurod og'a.
- Uning yaxshi-yomonligini bilmay turib qanday maqtaymiz?
- Unaqalarini o'rnidan bo'shagandan keyingina bilasan... Hozir bilmaysan... Shuning uchun ulug'layverish kerak...
- Hokim zo'r yigit...
- Aqilli, dono, ischan, chaqqon...
- Kamtar, mehribon." [2:3]

Hokimni haddan tashqari bo'rttirib maqtov yog'dirib o'tirgan uch oqsoqolning shirali so'zlarini, o'tirishga kechigib kelgan agronom buzadi. U majlisdan chiqqanligini va hokimni ishdan bo'shatilganligini aytadi. Agronomning so'zining yakunlanishini kutmagan uch oqsoqol, osmonlarga uchirayotgan hokimni birdaniga so'z bilan yerga qulatadi. Endi shu o'rtada hokim haqida maqtov so'zlar emas, qoralash so'zlar boshlanadi. Gapning haddan tashqari olishib ketganligini sezgan xabarchi agronom hokimning ishdan bo'shatilishidagi asosiy maqsadni bayonlaydi:

“ – Shunday qilib hokimning ahmoq ekanligini kattalar bilgan ekan-da?! – dedi Elmurod og'a.

- Voy, ular biladi-ku, - dedi Berdimurod og'a.
- Qaytib kelmasdek qilib olaslagandir? – dedi Xolmurod og'a.
- Ha, yo'g'a! – dedi bosh agronom.
- Unda nega bo'shatgan?!
- Bizni hokim qayda ketdi?
- Lavozimidan tushurilgan zim-ziyo yo'q bo'lib ketar edi-ku...
- Ministr bo'lib ketdi.
- Iya!

Shunnan keyin uch oqsoqol ovozini chiqarmadi. Faqat ovqat yeyaverdi. Biz ham shunday qildiq. Faqat ovqat yeyaverdik» [2]

Agronomning kutilmagan xabaridan so'ng, oqsoqollarning unsiz qolishi va o'tirgan o'tirishdan shoshilinch bilan ketib qolishi ularning oldagi rejalarini, hushomadgo'ylik qilish yashashdagi turmushining bir ko'rinishini ta'svirlab beradi.

Yozuvchi turmushimizdagi o'zgaruvchan, yuqori amaldorlar oldida hushomadgo'ylik qilishni o'ziga singdirib olgan, hamma narsani amal bilan o'lchaydigan, umr surishdan maqsadi yo'q, yoshi katta bo'lsa ham, o'rnak bo'ladigan hatti-harakat yasamaydigan odamlarning turmushimizda ko'payib ketganligini achchiq ironiyali bo'yoqlar bilan badiiy ta'svirlaydi.

Yozuvchining hajviy xarakter yaratishdagi mahorati «Yoshi kattaning sigiri» (Chexovning yo'lida)[3] hikoyasida ham aniq ko'zga tashlanadi. Hikoya mazmunida tamago'y, hushomadgo'y odamning xarakteri ochib beriladi. So'z ustasi asar g'oyasini rus yozuvchisi A.P.Chexovning hikoyalariga taqlid qilganligi, asar otasining yoniga (Chexovning yo'luga) deb nom qo'yishining o'zi ham Chexov hikoyalaridan ta'sirlanganligini ko'rsatib turadi. A.P.Chexovning «Xameleon» hikoyasi qahramoni Ochumelov bilan K. Smamatovning «Yoshi kattaning sigiri» hikoyasida Abulfayzning xarakterlari o'xshash kelib, kulguli holatlar bilan bayonlangan. Abulfayz o'z foydasini ko'zlagan, yoqimsiz hatti-harakatlari bilan hushomadgo'ylikni bo'yniga singdirgan qahramon xarakteri.

Asar voqeasi rayon miliciyasining boshlig'i Abulfayz Abdiraxmonovning ekinzorlarni oralab yurishidan boshlanadi. Abulfayzning ikkiyuzlamachilikga burkangan xarakteri oldingi bug'doy dalasiga tushgan qora molning egasini so'rashtirish davomidagi hatti-harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi:

- Bu Aytmurodning sigiridir?! – dedi birov. Tunov kuni qo'rasida ko'rganday bo'lib edim.

- Mayli, kimniki bo'lsa uniki bo'lsin... Darhol so'ydirib yuboring! Bu ba'zibir bebosh axmoqlarga dakki bo'ladi. Bunday daydi, ekinchil molning kimga keragi bor?! "Mol egasiga o'xshaydi" degan... Egasi ham yuvilmagan qoshiqdek iljaygan beodob birovdur?! [3:6]

Keltirilgan qatorlarda Abulfayz holatni tushunmasdan o'rinsiz holda, hatto egasini ham aniqlamasdan yovuzlik bilan bu qora molni so'ydirib yuborishni, egasini bo'lsa jazoga tortishni buyiradi. Biroq Abulfayzdagi tez o'zgaruvchanlikga ega ekanligi mol egasining kim ekanligini eshitgandagi holatida payqaladi:

"...Aytmoqchi, Aytmurod degan kim?"

O'rtaga qo'lida sariq beli bor bola chiqdi. U burnini bir tortib qo'yib Abulfayzga qaradi da:

- Aytmurod og'a, hardoimgi yoshi kattaning qiz opasining pochchasining ota tarafdin ukasi-ku, - dedi. – Hali siz bilmaysiz mi?

- Yoshi kattaning qiz opasining pochchasining ota tarafdin ukasi... u qanday yoshi katta?

- Hardoimgi yoshi katta da. Bizda bitta yoshi katta bor emas mi? Shuning o'zi.

- Shunaqa de?! Inim Odilboy, mening shu mundirimni yechishib yubor... Kun birdaniga isib ketdi mi, qalay-qalay? – Yelkamni teri burq eta qoldiku?. Aytmoqchi, Aytmurod oqsoqolning uyi qayerda?" [3:6]

Abulfayz hijolat bo'lib, yuqori odamning nomiga yomon so'zlar aytib qo'yganligidan terlab noqulay holatda ekanligini bilib uni maqtay boshladi. Biroq oradan sanoqli daqiqalar o'tganidan so'ng molning egasi Aytmurod og'a emasligi aniqlanib Abulfayz yana o'zgarib qoladi. Qora molni va uning egasini yomonlashga o'tadi. Uning til qotmay hushomadgo'ylikning ko'rpasini yomilganligini anglab turgan boshqalar bu mol egasining bundan ham yuqori lavozimli shaxsga tegishli ekanligi aytiladi. Abulfayz oldingi holatidan ham qattiqroq hijolatga tushib hushomadgo'ylik qila boshlaydi. Qahramon tomonidan aytilgan so'zlar Abulfayzning hushomadgo'y kimsa ekanligini darhol o'quvchiga sezdiradi. Bu muallifning mohir qalam egasi ekanligidan darak beradi.

Yakunlab aytganda, yozuvchi hikoyalarda xarakter va konflikt mohirona ochib berilgan. K. Smamutov jamiyatimizdagi yaramas qiliqlarni oshkora qilish maqsadida teran sarkazmli va ironiyali uslublarda yozganligi payqaladi.

Adabiyotlar:

1. Смамутов К. Солақай / Әмиўдәрья, 2007. №2.
2. Смамутов К. Дейди, дейди, дейди екен // Еркин Қарақалпақстан. 2002-жыл, 28-апрель.
3. Смамутов К. Жасыулкеннің сыйыры (Чеховтың жолына)// устаз жолы, 2011,2-июль